



## KASB-HUNAR MAKTABLARIDA O'QUV AMALIYOTLARINI SIFATLI TASHKIL QILISH OMILLARINI TAXLILI

---

*Toshloq tumani 2-son kasb hunar maktabi (metodisti) uslubchisi*  
**G'ulomova Feruza Abduxamidovna**

**Annotatsiya:** Kasb-hunar maktablarida talabalarni o'quv amaliyotlarini sifatli tashkil etish murakkab jarayon bo'lib, uni oqilona amalga oshirish bo'lg'usi kadrning kasbiy yetukligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumki, muayyan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kadr tayyorlash to'plangan tajriba, ilmiy izlanishlar asosida tartibga tushirilgan ta'lim standartlari, shuningdek, uni huquqiy jihatdan ta'minlovchi me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar tizimi asosida amalga oshiriladi. Demak, bunda kadrlar tayyorlashda uzoqni ko'zlab ish yuritiladi. Bu kadrlar tayyorlashning asosiy komponenti hisoblanadi hamda unga mamlakatimizda davlat ahamiyati beriladi. O'quv amaliyotini muayyan sharoitga tatbiq etish, faqat tatbiq etibgina qolmay, sifatli kadr tayyorlashga qaratilgan innovatsiya va ijodiy ishlanmalarni o'quv jarayonida qo'llash hamda bunda standart va nostandart metod va texnologiyalardan foydalanish, tashkilotchilikda avtorlik pozitsiyalariga ega bo'lish, umumlashtirib aytganda, strategiyaning muvaffaqiyatini ta'minlashga qaratilgan xususiy yondashuvlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** O'quv amaliyoti, mutaxassislik, me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar.

Kasb-hunar ta'limi tizimini mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik taraqqiyot tendensiyalarni, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini tatbiq qilgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, kasblar va mutaxassisliklar ta'lim standartlari talablariga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muhim hisoblanib bu o'z navbatida jamiyatimiz rivojining muhim bosqichidir. Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yillarda kasbhunar ta'limini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta'minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi,



iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko'rildi. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kasb-hunar ta'limi tizimi uchun kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish muhim hisoblandi.

Kasbga yo'naltirish - shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga nisbatan shakllanish jarayonini o'taydi, ya'ni kelajakda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib boradi. Noan'anaviy ta'lim - talabalarni o'z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi.

Noan'anaviy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil - ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham u, rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15 iyun kuni aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Mamlakatimizda sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, qurilish kabi ko'plab sohalar rivojlanib, yangi-yangi korxonalar ochilmoqda. Ularni malakali ishchi va mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lim yo'nalishlari o'zgartirilmoqda. Hududlarda "Ishga marhamat" monomarkazlari tashkil etilib, yoshlarga kasb o'rgatilmoqda. Taraqqiyot strategiyasida bu borada navbatdagi qadamlar – har bir fuqaroga kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kambag'allikni 2 baravarga qisqartirish maqsadlari belgilangan. Buning uchun barcha asoslar bor. Masalan, birgina 2022 yilning o'zida jami 16 milliard dollarlik 9 mingdan ziyod yirik va o'rta loyihalar amalga oshirilmoqda. Ularga 300 mingga yaqin malakali ishchilar kerak. Shu bilan birga, bu yil 404 ming yoshlar o'rta ta'limni, 151 ming nafari professional ta'limni bitirib, mehnat bozoriga kirib keladi. Ularni to'g'ri yo'naltirib, bandligini ta'minlash – dolzarb vazifa. Lekin, ochig'ini aytganda, 330 ta kasb-hunar maktabi, 173 ta kollej va 207 ta texnikum kutilgan natijani bermaypti. Ulardagi imkoniyatning atigi 40-50 foizidan foydalanilmoqda, xolos. "Ishga marhamat" monomarkazlari bor-yo'g'i 10 foiz ishsizlarni qamrab olgan. Ko'p kollej va



texnikumlardagi o'quv dasturlari zamon talabiga mos emas, 1 ming 350 nomdagi kasbiy darslik va adabiyotlar yetishmaydi. Oqibatda ish beruvchilar xodimlarni qaytadan o'qitishga majbur bo'lmoqda. Har bir viloyat, tuman va shaharda Kasb-hunar ta'limi kengashlari tashkil etiladi va ularga hokimlar rahbarlik qiladi. Kengash tarkibiga davlat idoralari, bank, rektorlar, Savdo-sanoat palatasi hamda tuman iqtisodiyotidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va servis korxonalarini rahbarlari kiradi. Ular mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj asosida, monomarkaz va kollejlarda o'qitiladigan kasblarni belgilaydi, yoshlarni ishlab chiqarish korxonalariga birlashtirib, amaliyot o'tashini tashkil etadi. Kasblar va mutaxassisliklar o'quv rejalaridagi o'quv amaliyotlarini shu kasb (mutaxassislik)ka tegishli hamda sohaning hozirdagi taraqqiyot darajasiga va rivojlanish istiqbolligiga mos bo'lgan zamonaviy texnika, dastgohlar, qurilmalar, asbob-uskunalar, materiallar va boshqa zarur jihozlar bilan to'liq ta'minlangan maxsus auditoriyalarda, ustaxonalarda, tajriba-sinov uchastkalarida, poligonlarda, studiyalarda, shuningdek, yuqorida qayd etilgan shartlar bajarilgan, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni xavfsizligi ta'minlangan hollarda o'quv amaliyotiga ajratilgan soatlarni ma'lum qismini korxonalar va tashkilotlarda o'tkazilishini ta'minlash o'z navbatida talabalarning yetuk kadrlar bo'lib yetishishi uchun xizmat qiladi. Gumanitar va ijtimoiy yo'nalishdagi kasblar va mutaxassisliklar amaliy mashg'ulot darslari va o'quv amaliyotlarini zamonaviy kompyuter va kasbga tegishli normativ hujjatlar, kataloglar, ma'lumotnomalar va boshqa manbalar bilan ta'minlangan maxsus auditoriyalarda o'tkazish lozim bu talabalarning ochiq ma'lumotlardan erkin foydalanishi va bilimlar olishi uchun muhim omil hisoblanadi. Kasblar va mutaxassisliklarning o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari o'quvchi egallayotgan kasbi (mutaxassisligi) mavjud bo'lgan, imkon qadar zaruriy shart-sharoitlar bilan ta'minlangan korxonalar, tashkilot va xo'jalik birlashmalarda o'tkazishni ta'minlash mustaqil kasb egasining ta'lim bilan amaliyotni bog'lash va o'z ustida ishlash uchun sharoit yaratib beradi.

**Xulosa:** Har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limi va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, qanday tamomlash ko'rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi. Dars kasb-hunar maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali vositalar bilan jixozlanib o'tilishi o'quvchilarda ko'nikma hamda malakani shakllanishiga erishilgan bo'ladi. Kasb - hunar maktablarining afzalligi, bu yerda 2 yil davomida umumta'lim va mutaxassislik fanlari



integratsiyalashgan dasturlari asosida o‘qitiladi. O‘quvchiga o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha bilim beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli qarori tahririda – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021- y., 09/21/345/0522-son.

2. Yu.Kudyarova - “Kasb ta’limining zamonaviy tashkiliy shakllari”, “Kasb ta’limi”